

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

## OILAVIY MEHMON UYLARINI TASHKIL ETISH - TURIZM SOHASIDAGI TADBIRKORLIKDIR

**Sarvar Abdurahimov Nasrilloevich** - Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Tobora dunyo aholisining sayohat qilishga bo'lgan qiziqishi ortib borishi bilanoq insonlarning o'z mamlakatlari hududidan boshqa mamlakat hududiga tashriflar hajmi ham ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida dunyoga yangicha sanoatning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda, ya'ni bu sanoat "turizm sanoati"dir. Turizm sanoati bu yaxlit tizim bo'lib u ko'plab xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Mehmonxonalar ana shunday tarmoqlarning eng muhimi hisoblanadi. O'z navbatida bunday muhim sohani faoliyatini tartibga solish ham anchagina masuliyatni talab qiladi. Biz ham mazkur maqolada turizmning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati, mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil etdik. Shu bilan birga rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi asosida yurtimizda mehmonxona turizmi va oilaviy uylarni tashkil etish borasida takliflar keltirilgan. Ushbu maqolada turizm va mehmonxona xo'jaligining iqtisodiyotda tutgan o'rni, afzalliklari haqida so'z yuritilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalari talabalari, professor-o'qituvchilari, soha xodimlari hamda keng auditoriya uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, xalqaro turizm, turizm industriyasi, mehmonxona, mehmonxona xo'jaligi, infratuzilma, restoranlar, turoperator.

**Kirish.** Turizm bu davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy, tomondan tez rivojlanishidir. Obro'-e'tiborining oshishiga olib keladi. O'zbekiston turizm bo'yicha Yevropadan qolishmaydigan potentsialga ega. Lekin bu potentsialdan kam foydalanish shuncha rivojlanishdan qolmoq deganidir.

Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda turizmning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va jozibador muhitni shakllantirish masalalari iqtisodchi olimlar o'rtasida qisman bayon etilgan. Bizningcha, hozirgi vaqtda xalqaro turistik xizmatlarning rivojlanish dinamikasi tahlilini olib borib, sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosati samaradorligiga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Respublikamizga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar sonini tobora oshirib borish bilan birga, ularni xalqimizning boy

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

madaniyati, anʼanalari, tarixi, turmush tarzi, milliy taomlari va dehqonchilik mahsulotlari bilan tanishtirish keng yoʻlga qoʻyilmoqda. Bu oʻz navbatida respublikamiz hududlariga tashrif buyurayotgan turistlar oqimini oshirish, aholini turizm sohasida bandligini taʼminlash va turizm xizmatlari eksportini ortishiga xizmat qiladi.

Oʻzbekistonning boy tarixi, madaniy merosi va goʻzal tabiati turizm sohasida katta salohiyatga ega. Soʻnggi yillarda davlatimizda turizmni rivojlantirishga katta eʼtibor qaralib, bu sohada koʻplab islohotlar amalga oshirildi. Turizm sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun oilaviy mehmon uylarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada oilaviy mehmon uylarini tashkil etish jarayonlari va uning afzalliklari haqida soʻz yuritamiz.

Barchamiz bilamizki, fuqarolar yigʻinlari hududlarida 20 tadan kam boʻlmagan oilaviy mehmon uylari yaratilgan taqdirda va sayyohlar uchun kamida besh xil xizmat turi (yashash va/yoki ovqatlantirish xizmatlaridan tashqari) koʻrsatilgan taqdirda, ularga “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlogʻi” yoki “Turizm ovuli” maqomi beriladi. 2020-yildan boshlab “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlogʻi” yoki “Turizm ovuli” maqomining berilgan fuqarolar yigʻini “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlariga kiritiladi.

Taʼkidlash kerakki, hozirgi vaqtda mehmonxonalar xizmati sifati kategoriyasini, xususan uni boshqarish obekti sifatida koʻrib chiqishda koʻplab mualliflar oʻrtasida yagona tushunish mavjud emas.

Fikrimizcha mehmonxona xizmatlari sifati standartlarda belgilangan maʼlum toʻplam va mijozlar olishni kutayotan bir turli xizmatlar xossasi boʻlib, ular turli kategoriyadagi joylashtirish vositalarida oʻziga xos va tegishli sifatlar toʻplamiga ega boʻladi, mehmonxona korxonalar doirasida mijozlarning vaqtincha joylashish, ovqatlanish, turli qoʻshimcha va yordamchi boshqa turdagi xizmatlarga mijozlarning amaliyotda aniqlangan va nazarda tutilayotgan individual ehtiyojlarini qondirishni taʼminlaydi. Shu nuqtai nazardan sifat tegishli standartlarda belgilangan normativ xossalari ega boʻladi, sifatni faqat bir turdagi, oʻxshash xizmatlar boʻyicha taqqoslash mumkin, sifatni har bir isteʼmolchi tomonidan ijtimoiy iqtisodiy parametrlar va uning shaxsiy afzal koʻrishi asosida baholash mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodologiyasi sifatida mehmonxonalarda turistik xizmat koʻrsatish sifati va samaradorligini boshqarishga oid olimlar fikrini oʻrgangan holda, kuzatish, qiyoslash, emperik tadqiqot, tizimli va

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

qiyosiy tahlil hamda statistik guruhlashtirish va ekspert baholash kabi usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Mehmonxona biznesi bugungi kunda eng istiqbolli va daromadli sohalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning xalqaro bozorga chiqishi va turizm sanoatining jadal rivojlanishi ishbilarmonlar va turistlarning mehmonxonalar va mehmonxonalar segmentida taqdim etiladigan xizmatlarga qiziqishini kuchaytirdi va shunga mos ravishda malakali ishchilarga ehtiyoj ortmoqda. Ushbu yo'nalishni biznes-taklif sifatida jalb qilish, mehmonxonaga ega bo'lish obro'li va foydalidir. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pchilik bu imkoniyatni o'ziga jalb qilmoqda martaba o'sishi mehmonxona biznesida - oddiy lavozimlar uchun ish beruvchilar ko'pincha xodimlardan biron bir maxsus ma'lumot yoki ko'nikmaga ega bo'lishni talab qilmaydi, shu bilan birga menejment jamoasiga jiddiy talablar qo'yiladi.

Hech kimga sir emaski, mehmonxonalar sanoatidagi kasblar juda xilma-xildir, chunki tizim mutaxassisliklarning ko'pligini belgilaydi - har bir kishi mehmonxona biznesida - texnik xodimlardan tortib to'g'ridanto'g'ri menejmentgacha - menejerlar, ma'murlar, menejerlar va boshqalarda faol ishtirok etadi. Bundan tashqari, mehmonxona sohasidagi mutaxassisliklar ofitsiantlar, oshpazlar, xizmatkorlar tomonidan taqdim etilgan. Qisqasi, ushbu faoliyat turida har bir kishi zavqlanadigan biror narsani topishi mumkin, chunki mehmonxona biznesidagi kasblar juda xilma-xildir.

Turizm xizmat ko'rsatishga asoslangan iqtisodiyotni yaratish va rivojlantirishni rag'batlantiradi. Ushbu faoliyat doirasi Toshkentdagi yirik mehmonxonalardan tortib, Samarqanddagi kichik xostellar, xalqaro aeroportlardagi butiklar, Buxoro va Xivaning xushmanzara ko'chalaridagi kichik hunarmandchilik do'konlarigacha bo'lgan qamrovni qamrab oladi. U insonlarda iqtisodiy ko'nikmalarni oshiradi, bilim ufqlarini kengaytiradi. Bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda, jumladan, eng rivojlangan 10 ta mamlakatda butun sa'yohatlar chet ellik sayyohlarni jalb etishga qaratilmoqda. Turizm rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, ayniqsa, pul oqimini oshirishda foydali bo'lishi hammaga ma'lum.

Mehmonxona - turizmning asosiy tarkibiy qismlaridan biri va turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mehmonxona uydan talab vositalari bilan ajraladi. Mehmonxonaning turlari juda ko'p bo'lib, o'tgan o'n yilliklar

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

davomida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. So'nggi yillarda ko'proq noan'anaviy va norasmiy mehmonxona turlariga talab ko'paydi.<sup>1</sup>

Mehmonxona sohasida ko'p o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Xususan joylashtirishning yangi turlari, asosan, shaharlardan tashqari joylar, kempinglar, uy-vagonlari va sayyohlik uylari juda mashhur bo'lib ketmoqda. Odatda, ko'p sonli sayyohlar oddiy joylarga tashrif buyuradilar, chunki birinchi klass mehmonxonalar o'zlarining ajoyib xizmat ko'rsatishlari mavjuddir. Bugungi kunda, Shveysariya, Gollandiya, Avstriya va Niderlandiya yaxshi milliy oshxonasi, qulaylik va tozalik uchun obro'ga sazovordir.

**Mehmonxona industriyasi.** Mehmonlarga xizmat ko'rsatishda mehmonxona xodimlari ham, boshqa korxonalarining xodimlari ham ishtirok etadiki, bu ushbu xonalar guruhida samarali texnologiyalarni ta'minlashni og'irlashtiradi.

### *Joylashtirish xizmati asosan quyidagi ishlarni o'z ichiga oladi:*

➤ mehmonlar ularning hujjatlariga ko'ra qabul qilinadi. Ma'mur mehmon bilan yashash joyini, ko'rsatiladigan xizmatlarni, yashash muddatini kelishib oladi. Yashash uchun haq olinadi. Rasmiylashtirish yakunlanganidan keyin mehmonga nomer kartasi va kaliti beriladi.

➤ mehmonlar nomerda yashashi davrida ularga xizmat ko'rsatish, yashash muddatini uzaytirish, mehmonni bir nomerdan boshqa nomerga o'tkazish, yashash uchun haq olish, mijozning xohishiga qarab unga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

➤ mehmonning jo'nab ketishini rasmiylashtirish chog'ida ko'rsatilgan xizmatlar uchun u bilan to'liq hisob-kitob qilinadi, mijoz nomer va kalitni topshiradi. Mijoz bilan hisob-kitob naqd pul bilan ham, pul o'tkazish yo'li bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Yagona hisob-kitob soati (12 soat) tizimini joriy etish mehmonxona ma'muriyatiga mijozlar bilan texnik hisob-kitob qilish jarayonini soddalashtirish imkonini beradi.

Qabul qilish xizmatining ishini yengillashtirish uchun axborot hisoblash tizimlari ishlab chiqilgan va tatbiq etilmoqda. Umumiy holda axborot hisoblash tizimi quyidagi to'rt funksional qismdan tashkil topadi:

- ✚ joylarni oldindan buyurtma qilish kichik tizimlari;
- ✚ xizmatga doir axborot berilishini ta'minlash tizimlari;
- ✚ navbatchi ma'mur tizimlari;

<sup>1</sup> Introduction to Management Hospitality. Clayron W.Barrows and anothers. USA, 2012.


# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

✚ mehmonxona ma'muriyati tizimlari.



**1-rasm. Turistlar va mehmonlarni joylashtirish vositalari**

Axborot hisoblash tizimining imkoniyatlari juda keng. Joylarni oldindan buyurtma qilish jarayonini avtomatlashtirish bilan bir qatorda kelayotganlar ro'yxatga olinadi, nomer fondining hisobi yuritiladi, mijozlar uchun hisob varaqlar tayyorlanadi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

Mamlakatimizda asosan ma'lum ish yuzasidan nisbatan qisqa muddatga keluvchi odamlarga shuningdek, har xil maqsadda sayohat qilayotgan fuqarolarga mo'ljallangan umumiy tipdagi mehmonxonalar keng tarqalgan. Bunday mehmonxonalar shaharning markaziy qismida, jamoat, ma'muriy, savdo markazlari yaqinida joylashadi va shaharning turli tumanlari bilan Yaxshi transport aloqasini nazarda tutadi. Mazkur mehmonxonalar odatda maxsus ko'kalamzorlashtirilmagan nisbatan kichkina yer maydonlariga ega bo'ladi.

Umumiy tipdagi mehmonxonalarining nomerlar fondi asosan bir, ikki o'rinli va ko'pincha uch o'rinli nomerlardan tashkil topadi. Bu nomerlarda, qoida tariqasida, ishlash uchun joy mavjud bo'ladi. Mehmonxonalarda aloqa bo'limi, ayrim hollarda bank bo'limi ishlab turadi, muzokara va yig'ilishlar o'tkazish uchun alohida joylar nazarda tutiladi. Mehmonxonalarining quyidagi tipologiyasi jahon amaliyotida ularni har birini batafsil tafsiloti bilan aniq ifodalangan ko'rinishi 1-jadvalda berilgan.

*1-jadval*

## Mehmonxonalar tipologiyasi

Mehmonxonalarining xili	Tavsifi
Otel-luks	O'z sig'imi bo'yicha mehmonxonaning mazkur tipi kichik yoki o'rta korxonalar safiga kiradi. Odatda shahar markazida joylashadi. Yaxshigina ta'lim olgan personal-xodim konferensiya, xizmat uchrashuvlari ishtirokchilari biznesmenlar bo'lib hisoblangan talabchan mijozlarga servisning juda yuqori darajasini ta'minlaydi. Barcha xizmat turlarini o'z ichiga oluvchi nomerlarning narxlari ancha qimmat turadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

<b>O'rta (klass) bo'g'inli mehmonxona</b>	O'z sig'imi bo'yicha oteldan katta (400-200 o'rinli) shahar markazida yoki shahar atrofida joylashgan. Yetarli darajada keng xizmatlar turini taqdim etadi, ulardagi narxlar u joylashgan mintaqa darajasiga teng yoki undan bir muncha yuqoriroq bo'lishi mumkin. Biznesmenlar, xususiy turistlar, kongress, konferensiya ishtirokchilari va h.k.ni qabul qilishi mumkin.
<b>Mehmonxona apartament (apart-otel)</b>	Sig'imi bo'yicha kichik yoki o'rta o'lchamli (400 o'ringacha) yirik shaharning doimiy bo'lmagan aholisi uchun xosdir.
<b>Iqtisodiy bo'g'in (klass) mehmonxonasi</b>	Vaqtinchalik turar joy sifatida ko'p yillardan beri o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishdan foydalaniladigan kvartira (ijara) tipidan tashkil topadi. Mehmonxonaning mazkur tipida narxlar qoidaga ko'ra joylashuv muddatiga bog'liq ravishda (turlanib) to'lanadi. Uzoq muddatga to'xtab o'tuvchi oilaviy turistlarga, biznesmenlarga va ijarachilarga xizmat ko'rsatadi.
	Kichik yoki o'rta sig'imli korxonalar (150 o'rinli va undan ortiq) magistral yo'l yoqalarida joylashadi. Xizmatlar to'plamini cheklanganligi, oddiy va tez xizmat ko'rsatish bilan ajralib turadi. Iste'molchilari – ko'rsatilgan (iste'mol qilingan) xizmatlar uchun haqiqiy to'lovni amalga oshirishga intiluvchi va to'liq pansionga muhtoj bo'lmagan biznesmenlar, xususiy turistlar uchun mo'ljallangan.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

<b>Otel-kurort</b>	<p>O‘z sig‘imi bo‘yicha mehmondo‘stlikning to‘liq xizmatlar to‘plamini taklif etish bilan ajralib turadigan korxonalar. Bundan tashqari, bu yerda parhez taomlar va maxsus tibbiy xizmat ko‘rsatish majmuasini olish mumkin. Kurort mintaqalarida joylashadi.</p>
<b>Motel</b>	<p>Shahar tashqarisida, shahar bo‘yida, magistral yo‘l yo‘qalarida joylashgan oddiy bir yoki ikki qavatli binolar. Bu kichik yoki o‘rta korxonalar (400 o‘ringacha). Kam sonli xodimlarni o‘rta darajali xizmat ko‘rsatishi xarakterlidir. Mijozlari bo‘lib havaskor avtoturizmiga urg‘u berilgan turli kategoriyadagi turistlar hisoblanadi.</p>
<b>“Tunash va nonushta” xilidagi xususiy mehmonxona</b>	<p>AQShda keng tarqalgan. Bu mehmonxona kichik (ba‘zida o‘rta) sig‘imli. Shahar atrofida yoki qishloq joylarda joylashgan. Xizmat ko‘rsatishga, qoidaga ko‘ra, nonushta va uy sharoitidagi yengil tamaddi kiradi. Mijozlari bo‘lib uy sharoitiga intiladigan tijoratchilar va shu yo‘nalishdagi turistlar hisoblanadi.</p>
<b>Otel-garni</b>	<p>Mijozlarga cheklangan miqdordagi xizmatlarni: joylashuv va kontinental nonushtani taqdim etuvchi korxonalar.</p>
<b>Pansion</b>	<p>Xizmatlar darajasini cheklanganligi va oddiy standartli korxonalar. Otel-garnilardan farqli ravishda bu yerda nonushta, tushlik va kechki ovqat (to‘liq pansion) taqdim etiladi. Biroq ovqatlanish xizmati faqat mijozlarga ko‘rsatiladi.</p>



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

<b>Mehmonxona hovli</b>	Otellardan sig'imi, xizmat ko'rsatishi, sodda standartligi bilan ajralib turuvchi korxonalar, uchrashuvlar va mehmonlar tashrifi uchun qator jamoa xonalarining mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Mehmonxona-hovli tarkibi (strukturasi)da restoran yoki barning mavjud bo'lishi majburiydir.
<b>Rotel</b>	Tunash uchun mo'ljallangan kreslolar joylashtirilgan bir yoki ikki o'rinli vagonlardan tashkil topuvchi harakatlanadigan mehmonxonadir. Xojatxona, oshxona, muzlatgich va kiyinish uchun mo'ljallangan xonalar mavjud.
<b>Botel</b>	Mos ravishda jihozlangan kichik kema sifatida foydalanuvchi, suvdagi uncha katta bo'lmagan mehmonxona.
<b>Flotel</b>	Ko'p xollarda "suvdagi kurort" deb nomlanuvchi katta mehmonxona. Turistlarga keng turdagi xizmatlarni taqdim etuvchi shinam nomerlar: basseyn, suv chang'ilari, baliq ovlash uchun sharoit yaratadigan, suv ostida suzish, suv osti ovi, trenajer zallari, konferensiya va kongresslar uchun zallar, kutubxona, turli-tuman ta'minotlar. So'nggi vaqtlarda turlarga o'qituvchi kongress-kruizlar, kongress-turlar, biznes-turlarni tashkil etish uchun foydalaniladi.
<b>Flaytel</b>	Agromehmonxona yoki "uchuvchi otel". Favqulodda qimmat va mehmonxonani kamyob turi hisoblanadi. Qo'nish maydonchasi va meteorologik xizmat aloqalari bilan jihozlangan.

Hozirda jahonda ma'lum bo'lgan 30 dan ortiq tasniflash tizimlari zamirida shinamlik darajasi yotadi. **Yevropa tasniflash tizimida** quyidagi tasniflash tizimlari ayniqsa keng tarqalgan:

✓ **"yulduzlar" tizimi** yoki Yevropa tasniflash tizimi. Fransiya milliy tasniflash tizimi asosida tuzilgan. Uning zamirida mehmonxonalarini 1 dan 5

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

yulduzgacha bo'lgan toifalarga ajratish yotadi. Bunday tizim Fransiya, Avstraliya, Vengriya, Misr, Rossiyada va boshqa bir qancha mamlakatlarda qo'llanadi;

- ✓ **harflar tizimi** (A, B, S, D). Gresiyada qo'llanadi;
- ✓ **“tojlar” tizimi**. Buyuk Britaniyada amal qiladi;
- ✓ **hind tizimi**.

Har bir davlatda mehmonxonalarni tasniflash mezoni – shinamlik darajasi har xil tushuniladi, shuningdek davlatlarning madaniy-tarixiy va milliy an'analari bilan belgilangan bir qancha omillar jahonda mehmonxonalarining yagona tasnifini joriy etishga mone'lik qiladi.

Butunjahon turizm tashkiloti (BTT), Yevropa hamjamiyati, Mehmonxona va restoran sanoati qo'mitasi, Xalqaro mehmonxonalar uyushmasining bu yo'nalishdagi faoliyati hozircha samara bermayapti. BTT faqat joylashtirish vositalarining standart tasnifini taklif etgan. Bu tasnifda mehmonxonalar va shunga o'xshash korxonalar to'rt katta guruhdan biriga kiritiladi.

Bugungi kunda turizm jahondagi uchta yetakchi sohalar qatoriga kiritilmoqda. Tez sur'atlarda rivojlanmoqda va uning muhim ijtimoiy hamda iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi quyidagi omilarga ta'siri bilan belgilanadi:

- ❖ mahalliy daromadni o'stiradi;
- ❖ yangi ish o'rinlarini yaratadi;
- ❖ turistik xizmatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalarni rivojlantiradi;
- ❖ sayyohlik markazlarida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantiradi;
- ❖ xalq hunarmandchilik markazlari faoliyatining rivojlanishini tezlashtiradi;
- ❖ mahalliy aholi yashash darajasining o'sishini ta'minlaydi;
- ❖ valyuta tushumlari miqdorining o'sishiga yordam beradi.


2022-yil davomida O'zbekiston hududida **1167** ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish ob'ektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan **93,2 %** i mehmonxonalar, **1,3 %** motellar va **5,5 %** boshqalarga to'g'ri keladi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida mavjud mehmonxonalar to'g'risidagi ma'lumot. (2022-yil yakuni bo'yicha)

O'zbekistonda turizm sektorini barcha mintaqalarda rivojlantirish maqsadida "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli qarori qabul qilinganligi ham mamlakatimizda bu sohaga e'tibor qaratilayotganligi hamda turli turizmni rivojlantirish bo'yicha

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

dasturlarning ishlab chiqilayotganligidan darak beradi. “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi amalga oshirilgach, sayohat madaniyati o‘zgara boshladi. Ichki turistik tashriflar 2016-yildagi 8,8 milliondan 2021yilda 15 milliongacha o‘ydi. So‘nggi besh yil ichida jami 833 ta mehmonxona foydalanishga topshirildi. 2022-yil yakuni holatiga ko‘ra, mamlakatimizda jami 33,4 ming xonali 1442 turistik turar joy mavjud bo‘lib, ulardagi umumiy o‘rinlar soni 71,2 mingtaga yetdi.

1-jadval

## O‘zbekistonda turizm faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari hamda sohaning mamlakat YaIMdagi ulushi

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2018	2019	2020	2021	2022
1	Xorijiy turistlar	<i>mln. nafar</i>	5,35	6,75	1,5	1,88	5,2
2	Eksport	<i>mln. AQSh dollari</i>	1041,1	1313	260,9	422,1	1600,0
3	Ichki turistlar	<i>mln. nafar</i>	12,5	14,7	3,5	15	11,435
4	Chiqish turizmi	<i>mln. nafar</i>	8,6	8,4	2	2,2	5,16
5	Mehmonxona nomer fondi bandligi	<i>foiz</i>	53,2	53,1	22,1	36,3	40,1
6	Turizm sohasida band bo‘lganlar	<i>ming nafar</i>	201	260,1	201,3	210	260,1
7	YaIMda turizmning ulushi	<i>foiz</i>	2,5	2,6	2,3	2,3	2,022
8	YaIM	<b>mlrd. so‘m</b>	<b>426 641,00</b>	<b>532 712,50</b>	<b>605 514,90</b>	<b>738 425,20</b>	<b>888 341,7</b>

Butun Jahon Turizm Tashkilotiga ko‘ra har bir turist, turist bo‘lishi uchun tashrif buyurgan joyida kamida bir kecha bo‘lishi kerak. Bu esa turistik joyda

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

ma'lum bir joylashtirish xizmatini tashkillashtiradi.<sup>2</sup> Bu joylashtirish turizm sohasida muhim rol o'ynaydi, va turistik yo'nalishda bu e'tiborsiz qoldirilishi mumkin emas. Bu umumiylikning maqsadi shundan iboratki, sizga mehmonxona faoliyatining turlarini va uni turizm industriyasidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Umumiylikning yana bir maqsadi shuki, u turistik joylardagi yordamchi xizmatlarning ahamiyatini ilgari surmoqda.

Mehmonxona - turizmning asosiy tarkibiy qismlaridan biri va turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mehmonxona uydan talab vositalari bilan ajraladi. Mehmonxonaning turlari juda ko'p bo'lib, o'tgan o'n yilliklar davomida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. So'nggi yillarda ko'proq noan'anaviy va norasmiy mehmonxona turlariga talab ko'paydi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda "Yevropaning aqlli turizm poytaxti" tashabbusi (The European Capital of Smart Tourism initiative) ilgari surilmoqda. Ushbu tashabbus "aqlli turizm" vositalarini, chora-tadbirlarini qamrab oladi hamda shaharlarda to'rtta toifa:

- ✚ baqarorlik,
- ✚ nogironligi bor insonlar uchun maxsus imkoniyatlar yaratib berish,
- ✚ raqamlashtirish,
- ✚ madaniy meros va ijodkorona yondashuv bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalardan xabardorlikni oshirishni nazarda tutadi.

Barqaror turizm ham mehmonlarning, ham ularga mezbonlik qiluvchi shaharlarning xavfsizligini ta'minlashi, atrof-muhitning ifloslanishiga va aholi tiqilinch bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Turistlar oqimini adolatli taqsimlash ham barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Bu rivojlangan mamlakatlar uchun ham, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham birday muhim.

---


<sup>2</sup> Wan Chai. Introduction to Management Hospitality. Clayton W. Barrows and anothers. USA, 2012.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль



2-rasm.

## Turizm sohasini davlat tomonidan boshqarishning yo'nalishlari

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va davlat tomonidan huquqiy tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi. Mazkur sohani rivojlantirish maqsadida tadbirkorlarga juda katta imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berilganligi soha rivojining asosiy omili bo'ldi. Shu bilan bir qatorda ba'zi bir kamchilik va foydalanilmayotgan

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

imkoniyatlar borki, ularni bartaraf etish va bu yoʻlda rivojlangan xorijiy davlatlarning ijobiy tajribalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611 Farmoni.
2. Barnabé Walheer, Linjia Zhang. Profit Luenberger and Malmquist-Luenberger indexes for multi-activity decision-making units: The case of the star-rated hotel industry in China //International Journal of Tourism Management. Pages 1-604 (December 2018) rr.111.
3. Kujelya Yu.L. Turizm i gostepriimstvo. Uchebnik: - M.: Izdatelstvo Yurayt, 2018. – 439-s.
4. Adilova Z., Norchayev A., Aliyeva M. Turizm menejmenti. Oʻquv qoʻllanma. -T.: TDIU, 2011, - 180-b.
5. Abdusalomova N. Xalqaro turizm da marketing jarayoni. i.f.n. diss. - TDIU, 2001. –142-b.
6. Fayziyeva Sh.R. Oʻzbekistonda turizm rivojlanishining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. i.f.n. diss. - OʻzMU, 2006. –135-b.
7. Mamatqulov X. Mehmonxona va turistik komplekslarda xizmatlarni tashkil yetish. Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. Samarqand. SamISI, 2011-y.
8. Pardayev M., Xoliqulov A. Mehmonxona xoʻjaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari. Monogorafiya. T.: Iqtisodiyot, 2013-y.

## Internet resurslari:

<https://www.uza.uz>

<https://www.stat.uz>

<https://www.ziyonet.uz>

<https://www.yedu.uz>